

TOP-30

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



**“SHAXSIY BUYURTMA ASOSIDA KIYIMNI KONSTRUKSIYALASH”
FANINING O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 700 000 –Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta'lim sohasi:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta'lim yo'nalishi:** 60720700 –Yengil sanoat muhandisligi (shaxsiy buyurtma asosida kiyim tayyorlash)

Fan/modul kodi SHBAKK145614		Semestr 4; 5; 6	ECTS-kreditlar 14 (5; 5; 4)	
Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4; 4; 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Shaxsiy buyurtma asosida kiyimni konstruksiyalash	168	252	420
2.	<p>I.Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad –kiyimlarni shaxsiy buyurtma asosida ishlab chiqarish, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini yoritish, turli shakl, bichim, siluetdagi kiyim modellarini loyihalashning zamonaviy va istiqbolli usullarini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanni vazifasi – fan va texnika yutuqlardan foydalanib yangi kiyim modellarini shaxsiy buyurtma asosida loyihalash, iste'molchi-buyurtmachi talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yelkali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish, model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalanish bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs, diplom loyihalarini bajarish va real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>1- mavzu. Kirish. "Shaxsiy buyurtma asosida kiyimni konstruksiyalash" fani haqida ma'lumot</p> <p>"Shaxsiy buyurtma asosida kiyimni konstruksiyalash" fanining mazmuni, predmeti va metodi. Kiyim to'g'risida asosiy tushunchalar. Kiyim funksiyasi.</p> <p>2- mavzu. Zamonaviy kiyim assortimenti va tasnifi. Mahsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi va kodlanishi. Sanoat manekenlari nomenklaturasi. Kiyim manekenlari. Sanoat manekenlari nomenklaturasi.</p> <p>3- mavzu. Kiyimlarga qo'yiladigan talablar</p> <p>Kiyimga qo'yiladigan talablar. Iste'molchi va ishlab chiqarishda qo'yiladigan talablar. Sifat ko'rsatkichlari haqida tushuncha. Iste'molchi va texnik –</p>			

iqtisodiy ko'rsatkichlar.

4- mavzu. Tananing o'lcham belgilarini olish uslubiyati. O'lchamlar xili va dasturi. O'lchash usullari. Odam tanasining o'lchamli tavsifi. Yetakchi razmer o'lchovlari. Farqsizlik intervali.

5- mavzu. Katta yoshli aholiga mansub razmerlar standartlari

Zamonaviy razmerli tipologiya va katta yoshdagi aholiga mansub razmerli standartlar. Ayollar notipaviy qomatlari. Erkaklar notipaviy qomatlari.

6- mavzu. Kiyim loyihalashning nazariy asoslari

Kiyimlarning konstruktiv xususiyatlari. Kiyim yuzasining tipaviy bo'laklanishi. Kiyim konstruksiyasini aniqlovchi asosiy belgilar.

7- mavzu. Kiyimda qo'shimchalar. Bemalollik qo'shimchalari. Tana o'lchamlarining dinamikada o'zgarishini e'tiborga olgan holda minimal kerak bo'lgan qo'shimchalarni hisoblash prinsiplari. Kiyim paketiga, material qalinligiga qo'shimchalar.

8- mavzu. Kiyim konstruksiyalash usullari

Kiyim konstruksiyalashga oid yuzalar yoyilmasi va ularning tasnifi. Kiyimlarni konstruksiyalash usullarining sinflanishi va ularning xarakteristikasi. Bazis to'ri tushunchasi. Turli kiyimlar uchun asos konstruksiyalar, ularni hisoblash usullari.

9- mavzu. Kiyim detallarining dastlabki chizmasini chizish

YEMKO bo'yicha kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari. Old va ort bo'laklar asosiy konstruksiyasining chizmasini qurish. Kiyim balansi.

10- mavzu. Shaxsiy buyurtma asosida kiyimni konstruksiyalash

"Myuller i sin" bo'yicha kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari. Turli bichimdagi kiyimlarni konstruksiyalash. Ingliz usuli asosida kiyimni konstruksiyalash

11- mavzu. O'tkazma yenglarni konstruksiyalash xususiyatlari

O'tkazma yenglarning shakli, konstruksiyasi va konstruksiyalash usullari xarakteristikasi.

12- mavzu. Turli yoqalarning konstruksiyasini tuzish xususiyatlari.

Yoqa konstruksiyalarining tasnifi. Yopiq taqilmaga mos yoqalar. Ochiq taqilmaga mos yoqalar

13- mavzu. Bel kiyimlari konstruksiyalash xususiyatlari

Bel kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Bel kiyimlari uchun bazis to'rini qurish. To'g'ri yubka konstruksiyasini qurish. Shim konstruksiyasini qurish usullari.

14- mavzu. Yelka kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari

Yelka kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Yelka kiyimlarini konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar. Ayollar kiyimlari uchun bazis to'rini qurish.

15- mavzu. Kiyim nuqsonlari

Kiyim nuqsonlarining sinflanishi. Konstruktiv nuqsonlar. Konstruktiv nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari. Modellashdagi texnologik nuqsonlar. Modellashtirish va texnologik nuqsonlarni tuzatish usullari.

16- mavzu. Kiyimlarini konstruktiv modellashning umumiy prinsiplari

Konstruktiv modellash (KM) uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash. Bazali konstruksiyani tanlash mezonlari. Bazaviy konstruksiya (BK) dan foydalanib KM ning 4 xil asosiy turlari.

17- mavzu. BK ni shaklini o'zgartirmay kiyimlarni KM usullari

Yangi model tuzilishining tahlili. BK ni shaklini o'zgartirmay yubka va shimni KM.

18- mavzu. BK ni shaklini o'zgartirib kiyimlarni KM usullari

Bel kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish. Turli shakldagi yubkalarni modellash.

19- mavzu. Otkazma yenglarini KM usullari

Otkazma yenglarni KM, yeng uchi kengligini o'zgartirish, yengni konus va parallel kengaytirish. Vitochkani qayta modellash. Yelka qismini KM usullari. Yeng o'mizini KM usullari.

20- mavzu. Turli shakl va modeldagi yoqalarini konstruksiyalash.

Yoqalarga qo'yiladigan talablar. Yoqalarning sinflanishi. Tik yoqa turlarini konstruksiyalash. Qaytarma yoqalarni qurish va KM.

21- mavzu. Bo'yin o'mizini konstruktiv modellash

Bo'yin o'mizini bezash elementlarini (kokile, jabo, pejerina va h.k.) KM. Kapyushonni konstruksiyalash va modellash.

22- mavzu. Yeng bichimini o'zgartirib KM usullari. Reglan bichimli yenglarni KM usullari. Yaxlit bichimini yenglarni KM usullari

Turli xil yaxlit bichilgan yenglar konstruksiyasini o'tqazma yeng BK asosida konstruktiv modellash. Mayin (keng) hajm-yelkali kiyimlarini o'tkazma BK dan foydalanib modellash.

23-mavzu. Trikotaj buyumlarini konstruksiyalash

Trikotaj buyumlarini konstruksiyalashning xususiyatlari

24-mavzu. Turli materiallardan tayyorlanadigan kiyimlar konstruksiyasiga xos xususiyatlar

Sun'iy charm, mo'yna, qavatlangan va qoplangan materiallardan tayyorlanadigan kiyimlarning konstruksiyasiga xos xususiyatlar

25- mavzu. Kiyimlarning yangi modellarini loyihalash bosqichlari

Ishlab chiqarishini konstruktorlik va texnologik jihatdan tayyorlash uchun dastlabki ma'lumotlar: model namunasi, dastlabki konstruksiya, normativ texnik hujjatlar. Kiyimlarni «Konstruktorlik hujjatlarining yagona sistemasi (KHYaS)» Davlat standartiga mos ravishda loyihalash bosqichlari.

26- mavzu. Andazalar chizmalarini tayyorlash asoslari

Andazalar tayyorlashga qo'yiladigan texnik talablar. Kiyim detallari andozalarini ishlab chiqish tartibi. Kiyim detallari andozalarini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar.

27- mavzu. Andazalar chizmalarini tayyorlash

Kiyim model konstruksiyasi, texnologik qo'shimchalar kiritilgan yig'ma chizmalar, kiyim paketi materiallari xarakteristikasi va xossalari. Andazalarni rasmiylashtirishning texnik talablar.

28- mavzu. Andazalar gradatsiyasi usullari

Andazalarni texnik ko'paytirish to'g'risida umumiy tushuncha. Andazalarni texnik ko'paytirishga qo'yiladigan qo'yiladigan talablar. Ko'paytirish o'qlari va ko'paytirish qiymatlari.

29- mavzu. Kiyim andazalari joylashmasini bajarish usullari.

Andazalar joylashmasiga oid hisoblar. Andazalar joylashmasini bajarishga doir texnik talablar.

30- mavzu. Kiyim uchun material sarfi normasini aniqlash.

Kiyim uchun material to'shamasini hisoblash usullari. Andazalararo chiqitlarni aniqlash.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy kiyim konstruktiv tuzilishi va uni tashqi shaklini o'rganish.
2. Kiyimlarning tashqi va ichki o'lchamlarini hisoblash.
3. Hisob usulini qo'llab individual qomatga to'g'ri yubka konstruksiyasini hisoblash va qurish.
4. "Myuller i sin" usuli bo'yicha individual qomatga ayollar ko'ylagi konstruksiyasini hisoblash va qurish.
5. Ingliz usuli bo'yicha individual qomat uchun erkaklar ko'ylagi konstruksiyasini hisoblash va qurish.
6. Yoqalar yangi model konstruksiyalarini ishlab chiqish.
7. Bo'yin o'mizida murakkab shakl hosil qilish va turli yoqalarni ishlab chiqish, maketda tekshirish.
8. Kapyushon konstruksiyasini qurish.

III. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kiyim loyihalashda qo'llaniladigan o'lcham ko'rsatkichlarni tahlil qilish.
2. Mulyaj usulida to'g'ri yubka maketi va konstruksiyasini tayyorlash.
3. Mulyaj usulida ayollar ko'ylagi maketi va konstruksiyasini ishlab chiqish.
4. Ayollar ko'ylagi maketini kiyib ko'rishga tayyorlash va qomatda maket nuqsonlarini aniqlab bartaraf etishni o'rganish.
5. Erkaklar ko'ylagi maketini kiyib ko'rishga tayyorlash va qomatda tekshirish.
6. Zamonaviy moda yo'nalishi tahlili asosida bel kiyimlarini individual qomat uchun konstruktiv modellash (shim va yubka).
7. Bel kiyimi yangi modeli maketini tayyorlash va qomatda tekshirish
8. Zamonaviy moda yo'nalishi tahlili asosida ayollar kiyimini individual qomat uchun konstruktiv modellash.
9. Ayollar kiyimi yangi modeli maketini tayyorlash va qomatda tekshirish
10. O'tqazma yenglarni individual qomat uchun konstruktiv modellash.

11. O'tqazma yeng yangi modeli maketini tayyorlash va qomatda tekshirish
12. Reglan yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish.
13. Reglan yeng bichimli kiyim maketini tayyorlash va qomatda tekshirish.
14. Yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish
15. Yaxlit yeng bichimli kiyim model maketini tayyorlash va qomatda tekshirish.
16. Kiyim andazalarini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash.
17. Kiyim asosiy detallari andazalarini ishlab chiqish va rasmiylashtirish.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari boyicha olgan bilim va ko'nikmalarini laboratoriya ishlarini bajarishda qo'llaydilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, qo'shimcha ma'lumotlar orqali talabalar bilimini oshirish maqsadga muvofiq.

IV, Kurs loyiha bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Kurs loyiha uchun tavsiya etiladigan mavzular - "Muayyan kiyim assortimenti yangi modelini loyihalash". (Kiyim assortimenti va vazifasi talaba tanloviga asosan olinadi):

1. Ayollar trenchkoti yangi modelini loyihalash
2. O'smir qizlar komplekti modelini loyihalash
3. Erkaklar paltosi yangi modelini loyihalash
4. O'g'il bolalar kurtkasi yangi modelini loyihalash

Kurs loyiha fan mavzulariga taaluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs loyihaning hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs loyihani bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Turli bichimdagi ayollar yubkasini konstruksiyalashning xususiyatlari.
2. Turli bichimdagi shimlarni konstruksiyalashning xususiyatlari.
3. Turli materiallardan (charm, mo'yna, plenka) kiyimlarni konstruksiyalash.
4. Trikotaj polotnosidan kiyimlarni konstruksiyalash.
5. Bolalar kiyimini konstruksiyalash.
6. Ayollar paltosini konstruksiyalash.
6. Ayollar ko'ylagini MGUDT uslubi bo'yicha loyihalash.

	<p>7. “Myuller i sin” metodikasi bo‘yicha turli kiyim konstruksiyalarini ishlab chiqish.</p> <p>8. Murakkab bichimli ayollar kiyimini konstruksiyalash</p> <p>9. Andazalarni YEMKO usulida ko‘paytirish.</p> <p>10. Katak va yo‘l-yo‘l gazlamalar uchun andazalar joylashmasini ishlab chiqish.</p> <p>Muštaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish, konstruksiya va loyihalash ishlarini bajarish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>VI, Ta’lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - konstruktiv modellash usullari, fan va texnika yutuqlardan foydalanib yangi kiyim modellarini individual buyurtma asosida loyihalash yo‘nalishlari <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi;</i> - iste’molchi va ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yelkali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqishni, turli kiyimlarning bichimi va tashqi shakliga, konstruksiyasiga qo‘yiladigan talablarni, odam qomatida kiyim sifatini baholash usullari va mezonlarini, bazali va asos konstruksiyani modifikatsiyalash orqali erkaklar va ayollar kiyimlarini konstruktiv modellash usullarini, model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalanishni, kiyim detallari andazalari chizmasini qurishni, kiyim detallari andazalarini ko‘paytirish usullarini, materiallar sarfi normasini aniqlash va andazalar joylashmasini bajarishga doir texnik talablarni <i>bilishi va ulardan foydalanish;</i> - tikuvchilik sanoati va unga aloqador tarmoqlarning holati va rivojlanish istiqbollari ko‘rish, odam qomatiga mos kiyim maketini yaratish, kiyimlarni buyurtmachi talabi asosida konstruksiyalash, individual buyurtmalar uchun yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.</i>
4.	<p>VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalari; • laboratoriya mashg‘ulotlari; • interfaol keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo‘lib ishlash; • video materiallar tayyorlash; • individual ishlash.

9.	Taqrizchilar: Tashmuxamedova M.B. “Nur Tex” MChJ direktori Yunusxodjayeva X.M. - TTYeSI, “Moda va dizayn” kafedrası dotsenti
----	---

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

Ni	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular
1	Kornelli Universiteti	13	-	https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/2024 https://www.cornell.edu/ai/out/	6-mavzu qisman olingan	Transformable Fashion: The Biggest Sustainable Clothing Trend That Never Was
2	Yonse Universiteti	76	-	https://documents.manchester.ac.uk/display.aspx?DocID=44095&utm	7-mavzu qisman olingan	Observations on the Present and Future of Mass Customization

